

## SHAXS VA TUZUM TO‘QNASHUVI: “LOLAZOR” ROMANI MISOLIDA

Qosimova Shahzodaxon

Kattaqo‘rg‘on davlat pedagogika instituti  
Filologiya va ijtimoiy fanlar fakulteti 3-bosqich talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20080707>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada XX asr o‘zbek adabiyotining durdonalaridan biri – Murod Muhammad Do‘stning “Lolazor” romani “shaxs va tuzum” muammosi prizmasidan tadqiq etiladi. Asarda turg‘unlik davri ijtimoiy-siyosiy muhitining inson ruhiyatiga ko‘rsatgan halokatli ta’siri, Nazar Yaxshiboyev obrazi orqali shaxsiyatning ikkilanishi va ma’naviy inqirozi ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Maqolada tuzumning qoliplari va inson erkinligi o‘rtasidagi ziddiyatlar, xushomadgo‘ylik va sadoqat tushunchalarining deformatsiyasi badiiy dalillar yordamida ochib beriladi. Tadqiqot natijalari mustabid tuzum sharoitida shaxsning o‘zligini saqlab qolish imkoniyatlari va fojiasini tushunishga xizmat qiladi.

**Kalit so‘zlar:** Murod Muhammad Do‘st, “Lolazor”, Nazar Yaxshiboyev, shaxs va tuzum, turg‘unlik davri, ma’naviy inqiroz, badiiy psixologizm, konformizm, ijtimoiy qatag‘on.

**Аннотация.** В данной статье исследуется один из шедевров узбекской литературы XX века — роман Мурада Мухаммада Дуста “Лолазор” сквозь призму конфликта “личность и режим”. В работе теоретически анализируется деструктивное влияние социально-политической среды периода застоя на психику человека, на примере раздвоения личности и духовного кризиса героя Назара Яхшибоева. В статье раскрываются противоречия между рамками режима и свободой человека, а также деформация понятий лести и верности на основе художественных доказательств. Результаты исследования служат пониманию трагедии и возможностей сохранения индивидуальности в условиях тоталитарной системы.

**Ключевые слова:** Мурад Мухаммад Дост, “Лолазор”, Назар Яхшибоев, личность и режим, период застоя, духовный кризис, художественный психологизм, конформизм, социальные репрессии.

**Abstract.** This article investigates one of the masterpieces of 20th-century Uzbek literature, Murod Muhammad Dost’s novel “Lolazor” through the prism of the “individual and the regime” conflict. The research theoretically analyzes the destructive impact of the social-political environment during the stagnation period on the human psyche, focusing on the character Nazar Yakhshiboev’s identity split and spiritual crisis. The article reveals the contradictions between regime constraints and human freedom, and the deformation of concepts like flattery and loyalty using artistic evidence. The findings illuminate the tragedy and possibilities of preserving one’s identity under a totalitarian system.

**Key words:** Murod Muhammad Dost, “Lolazor”, Nazar Yakhshiboev, individual and regime, stagnation period, spiritual crisis, artistic psychologism, conformism, social repression.

**KIRISH.** Adabiyot — hamisha inson va jamiyat o‘rtasidagi ko‘rinmas iplarni tadqiq etuvchi soha bo‘lib kelgan. Xususan, XX asr o‘zbek nasrida turg‘unlik davri deb atalgan murakkab bosqich o‘zining barcha ziddiyatlari bilan aks etdi. Murod Muhammad Do‘stning “Lolazor” romani nafaqat badiiy asar, balki o‘sha davr siyosiy mashinasining inson taqdirini

qanday maydalab tashlaganini ko'rsatuvchi o'ziga xos "ma'naviy aybnoma"dir. Har bir davrning o'ziga xos murakkabliklari, sinovli kechmishlari, og'riqlari bo'ladi. Biroq davr taqozosi bilan hech bir kimsa tuzumga, ko'rib, kechirib kelayotgan sinovlariga qarshi o'z fikrini, qarshiligini ko'rsatishga qodir bo'lmagan, mobodo bunga jazm etdimi uni jamiyatdagi "o'rni" ildizi bilan yo'q qilingan. Murod Muhammad Do'stning "Lolazor" asari boshqa davrdosh romanlardan farqli ravishda barcha ijtimoiy muammolarning ildizi mavjud siyosiy tafakkur bilan bog'liqligini asoslab bergan.

Yozuvchi davrga xos bo'lgan muammolarni hal etish yo'llarini, yechimlarini taklif etmaydi, ammo paradoksal tuzumga nisbatan ziyoli ziyoli odam qanday maqomda bo'lishi kerak ekanini anglab yetadi va buni bizga ham anglatadi.

"Lolazor" – bu sirtqi tomondan go'zal, ammo ich-ichidan qonga belangan va chirigan muhit ramzi. Roman markazida turgan shaxs va tuzum to'qnashuvi shunchaki siyosiy qarama-qarshilik emas, balki vijdon va manfaat, haqiqat va yolg'on o'rtasidagi mangu kurashning ko'rinishidir. Asarning bosh qahramoni Nazar Yaxshiboyev timsolida biz davrning barcha fojialarini – iste'dodning xor bo'lishini, do'stlikning sotqinlikka aylanishini va eng achinarlisi, insonning o'z-o'zini inkor etishini ko'ramiz.

**METODOLOGIYA.** Ushbu tadqiqotda quyidagi ilmiy metodlardan foydalanildi:

**Psixologik tahlil metodi:** Nazar Yaxshiboyev va boshqa qahramonlarning ichki dunyosi, ruhiy kechinmalari va ularning harakatlantiruvchi motivlarini aniqlashda qo'llanildi.

**Sotsiologik yondashuv:** Roman yozilgan davr (80-yillar) va unda tasvirlangan ijtimoiy-siyosiy tuzumning inson xarakteriga ta'siri o'rganildi.

**Qiyosiy-tipologik metod:** "Lolazor"dagi obrazlar tizimi jahon adabiyotidagi (masalan, Kafka yoki Oruell asarlari) totalitarizm qurbonlari bilan qiyoslandi.

**Germenevtik tahlil:** Asardagi ramzlar (Lolazor, qizil rang, Oshno obrazi) va ularning ostmatnlaridagi ma'nolar talqin qilindi.

**NATIJALAR.** Tadqiqot jarayonida shaxs va tuzum to'qnashuvining quyidagi asosiy bosqichlari va natijalari aniqlandi:

Tuzumning "Yutilish" mexanizmi: Tuzum shaxsni darhol yo'q qilmaydi, balki uni sekin-asta o'ziga moslashtiradi. Nazar Yaxshiboyev dastlab iste'dodli, isyonkor yozuvchi edi, ammo u "yuqoridagilar" ning iltifotiga erishish uchun o'z prinsiplaridan voz kecha boshladi. Natijada, u jismonan tirik, ammo ma'nan o'lik shaxsga aylandi.

"Lolazor" romanining markazida uch qahramon turadi. Bu uchovlonning roman mazmunida tutgan o'rni va vazifasi, yozuvchining badiiy konsepsiyasidagi ahamiyatini tushunishda Saidqul Mardonning quyidagi tasnifi muhim rol o'ynaydi: "Oshno – Iskandari Zulqarnayn, Yaxshiboyev Iskandarning shoxini ko'rib ichiga singdirolmagan sartarosh, men esam – quduq, chuqur va zimiston quduq". Romanda hech bir qahramon Nazar Yaxshiboyevga o'zlikni anglash darajasida teng kelolmaydi. U yolg'on siyosatning ko'lamini hammadan ko'ra kengroq his qiladi, eng katta rahbardan tortib oddiy cho'pon taqdirigacha kirib boradi, ruhiy evrilishlarni kuzatadi, baholaydi, davr fojiasini butun murakkabliklari bilan ko'radi. Aslida, Murod Muhammad Do'stni qiynagan muammo ham shu – davr ziyolisi, agar u juda ildamlab ketsa, fojiani faqat ko'ra oladi, xolos, undan ortiq emas. Ya'ni yaxshiboyevlar o'zligini to'la anglasalar ham, o'zligini namoyon (isyon) qila olmaydi.

Zero, yolg'on tizimli tomir otgan, har sohani total nazoratga olgan "qo'rquv saltanati" bunga yo'l qo'ymaydi. Demak, Nazar Yaxshiboyevning qismati ma'lum, buni bir so'z bilan "ilojsizlik" deb atash mumkin. U hayoti oxirlab, o'tgan umrini sarhisob qilarkan, faqat ro'yoni ko'radi: na turmushda, na ijodda va na mansabda yuk bosadigan biror xayrli ish qilganini bilmaydi. "Bulduruqda bog' qilolmadim. Armonki, qolgan hammasini bir tiyin qiladi: obro'yimni ham, unvonimni ham, boringki, butun xonumonimni!" deydi. Shu sababli zig'ircha bo'lsa ham yolg'on aralashmagan, qo'l bilan ushlab mumkin bo'lgan rost ish qilishni ko'ngliga tugadi. O'z qishlog'ida bog' yaratadi. Bu bog' Nazar Yaxshiboyev dunyoga kelib topgan yagona haqiqati, birdan bir yupanchi edi. Adabiyotshunos Rahmon Qo'chqor "Lolazor" romani haqida "Bunda biror ijtimoiy tip nigohi orqali uning o'zi yaratishda qatnashgan va oxir-oqibat o'zi qul bo'lgan muhitning mohiyati tahlil qilinadi", deya asarning muhim g'oyasiga e'tibor qaratadi. Chindan ham, romanda tasvirlangan paradoksal ijtimoiy muhitning faol a'zolari – hokimiyat vakillari tomonidan uning shakllantiriladi. Unda yolg'on siyosiy madaniyatning ajralmas uzvi, aytish mumkinki, davlatchilikning tayanchlaridan biri. Ya'ni davlatchilik aholini mafkuralashtirish evaziga qurilarkan, shu mafkuraning o'zi yolg'onga asoslanadi.

**Obrazlar iyerarxiyasi:** Romanda tuzumning uch xil ko'rinishi aks etgan:

**Saidqul Jo'ra (Oshno)** – Tuzumning ijrochisi va manipulyatori.

**Nazar Yaxshiboyev** – Tuzumga sotilgan, ammo vijdoni qiynalayotgan intellektual.

**Chorshanbiyev** – Tuzumning mutlaq mahsuli, hech qanday vijdonsiz, faqat xizmat qilish uchun dasturlangan "yangi avlod".

**Badiiy makon va zamon:** Asar voqealari kechayotgan "Lolazor" sovxozi – bu butun bir mamlakatning kichraytirilgan modeli. Bu yerdagi qizil lolalar – ideologiya niqobi ostidagi qurbonlar ramzidir.

**MUHOKAMA.** "Lolazor" romani o'zbek adabiyoshunosligida turli bahslarga sabab bo'lgan. Ba'zi tadqiqotchilar uni shunchaki turg'unlik davri fosh etilgan asar deb hisoblasa, boshqalari uni inson tabiati haqidagi universal falsafiy asar sifatida baholaydi.

**Shaxsning deformatsiyasi:** Nazar Yaxshiboyevning eng katta fojiasi – u o'zining qul ekanligini bilishi, lekin ozod bo'lishni istamasligidir. U "Oshno" (Saidqul Jo'ra) bilan bo'lgan munosabatlarida o'zini teng ko'rmoqchi bo'ladi, ammo har doim uning xizmatkoriga aylanib qolaveradi. Muallif bu orqali "Inson o'z erkinligini nega bunchalik arzonga sotadi?" degan savolni o'rta tashlaydi.

Yaxshiboyevning ichki monoglari asarning eng kuchli qismlari hisoblanadi. U o'z-o'ziga savol beradi: "Sultonlarga bosh egmaram, harchand faqir" degan epigrafga amal qila oldimi?

Yo'q. U sultonlarga bosh egdi, ammo evaziga ma'naviy qashshoqlikni sotib oldi.

**Nazar Yaxshiboyev: "Men"ning parchalanishi**

Yaxshiboyev – iste'dodli yozuvchi. Biroq u yashayotgan muhit undan haqiqatni emas, balki "Oshno"ga yoqadigan qoliplarni talab qiladi. Uning ichki dunyosida doimiy ikki xillik hukmron: bir tomondan, u o'zining tubanlashayotganini anglaydi, ikkinchi tomondan, u bu tubanlikdan keladigan imtiyozlardan voz kecha olmaydi. Muallif yozadi: "Biz hamma narsani bilardik, hamma narsani ko'rardik, lekin jim turish va xushomad qilish osonroq edi" [1; 78]. Bu jumla butun bir davr intellektual qatlamining shioriga aylangan edi.

**Tuzumning “Temir mantiqi”.** Saidqul Jo‘ra (Oshno) obrazi orqali muallif totalitar tuzumning insonni boshqarish mexanizmini ko‘rsatadi. Oshno uchun odamlar – bu shaxmat taxtasidagi donalar. U Yaxshiboyevni do‘st sifatida emas, balki o‘zining siyosiy o‘yinlari uchun “qalamkash” sifatida asraydi. Bu yerda shaxs va tuzum to‘qnashuvi mutlaq g‘alaba yoki mag‘lubiyat bilan tugamaydi, balki shaxsning o‘zligidan butunlay begonalashuvi bilan yakunlanadi [4; 89].

**Badiiy Psixologizm va Til.** Murod Muhammad Do‘stning mahorati shundaki, u siyosiy masalalarni badiiy til, kinoya va achchiq yumor ostiga yashiradi. Asardagi “Bemor” bobi Nazar Yaxshiboyevning nafaqat jismoniy, balki ma‘naviy o‘limi oldidan berilgan so‘nggi tahlildir. U kasalxonada yotib, o‘z o‘tmishini, Muxsina bilan bo‘lgan munosabatlarini eslar ekan, tuzum uning eng go‘zal tuyg‘ularini ham qanday qilib o‘ldirganini his qiladi [1; 214].

**XULOSA.** “Lolazor” romani o‘zbek adabiyotidagi “shaxs va jamiyat” muammosini yangi darajaga ko‘tardi. Xulosalar shuni ko‘rsatadiki: Mustabid tuzum sharoitida shaxsning mutlaq erkinligi imkonsiz, biroq ma‘naviy tanazzul uchun mas‘uliyat baribir insonning o‘ziga yuklanadi.

**Nazar Yaxshiboyev fojiasi** – bu o‘z iqtidorini va vijdonini vaqtinchalik moddiy farovonlikka almashgan kishining ayanchli qismatidir. Asar bugungi kun o‘quvchisi uchun ham ogohlantirish bo‘lib xizmat qiladi: shaxs o‘z “Men” ini yo‘qotsa, u har qanday tuzumning oddiy va jonsiz murvatiga aylanib qoladi. Murod Muhammad Do‘st o‘zining inson konsepsiyasi markaziga “yolg‘onda yashayotgan” shaxslarni qo‘yarkan, ularning taqdiri, o‘y-xayollari, ruhiy evrilishlarini sho‘ro tuzumi tabiatidan kelib chiqib tasvirlaydi. Yolg‘on g‘oya asosiga qurilgan jamiyatda odamning to‘g‘ri bo‘lishi deyarli imkonsiz. Balki ayrimlar go‘yo “to‘g‘ri” yashagandek, lekin bu ham aslida yolg‘onning mezonlariga ko‘ra “to‘g‘ri”, romanda buning ochib berilishi esa, albatta, adibning mutafakkirona kashfiyotidir. “Lolazor” milliy adabiyotimizda hokimiyatni anglashni, hukmron elitaga xos murakkab ruhiy tovlanishlarni ko‘rsatishni maqsad qilgan nodir asar. Shu ma‘noda o‘lmas asar, o‘lmaski, “har kishining o‘z zamoni va o‘z Oshnosi bor”. Mutafakkir adib SSSR parchalangani bilan unga xos siyosiy tafakkur yangi hokimiyat vorislariga qolishini, asr boshlarida kommunizm otalari yaratib ketgan yolg‘on siyosat, xuddi estafeta tayoqchasidek hali uzoq yillar qo‘ldan-qo‘lga o‘tib yurishini sezganmi, eldosh-u tildosh ukalarim “o‘zga avlod odamlarining ahvolini tushunsa, o‘shalarning hayotini o‘z umriga juda qisqa bir muddat payvand qilsa, so‘ng o‘ylasa, ko‘p va xo‘p o‘ylasa! Qiynalib, azoblanib, kulib, yig‘lab o‘ylasa-da, minba‘d o‘zlari o‘sha yo‘riqqa tushmasa!” deb niyat qiladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Murod Muhammad Do‘st. Lolazor: Roman. – Toshkent: “Sharq” nashriyot-matbaa konserni bosh tahririyati, 1998. – 560 b.
2. Karimov N. XX asr o‘zbek adabiyoti manzaralari. – Toshkent: O‘zbekiston, 2008. – 284 b.
3. Yo‘ldoshev Q. Yoniq so‘z. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2006. – 412 b.
4. Normatov U. Qodiriy bog‘i. – Toshkent: Ma‘naviyat, 1997. – 320 b.
5. Sharafiddinov O. Ijodni anglash baxti. – Toshkent: Sharq, 2004. – 380 b.
6. Quronov D. Adabiyotshunoslik nazariyasi asoslari. – Toshkent: Akademya nashr, 2016. – 210 b.
7. Rasulov T. Badiiy psixologizm va xarakter. – Toshkent: Fan, 2005. – 176 b.